

TXVUda “Talabalar teatr kunlari” loyihasini amalga oshirish maqsadida O‘zbek Milliy akademik drama teatrining **“Yulduzli tunlar”** spektakli namoyishiga talabalarning tashrifi

B A Y O N N O M A S I

2025 yil 31 oktabr

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusning birinchi yo‘nalishi doirasida, ya‘ni yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san‘atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish maqsadida 2025 yil 31 oktabr kuni “Talabalar teatr kunlari” loyihasini amalga oshirish hamda talabalarning ma‘naviy dunyoqarashini kengaytirish, milliy adabiyot va teatr san‘atiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida O‘zbek Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan “Yulduzli tunlar” nomli spektakl namoyishiga talabalarning tashrifi amalga oshirildi va bir qancha talabalar jalb etildilar.



Mazkur asar O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirovning shu nomdagi romani asosida sahnaga qo‘yilgan bo‘lib, unda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani e‘zozlash, millat fidoyilari hayoti va jasorati yuksak badiiy ifoda bilan aks ettirilgan. Talabalar spektakl davomida tarixiy obrazlarning hayotiy ifodasi, aktyorlarning mahorati hamda sahna bezaklarining o‘ziga xos tarzda yoritilganidan katta taassurot oldilar.



Tadbir yakunida talabalar o‘z fikr-mulohazalarini bildirar ekan, bunday madaniy uchrashuvlar ularning estetik didini shakllantirish va Vatan tarixiga bo‘lgan mehrini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidladilar.



Ushbu tashrif orqali talabalar milliy teatr san’ati, tarixiy asarlarning badiiy talqini hamda ijodiy yondashuvning ahamiyatini yanada chuqur angladilar. Tadbir ularning madaniy saviyasini yuksaltirish, ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish va milliy qadriyatlarga hurmat ruhini mustahkamlashga xizmat qildi.

TXVU Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektori:

N. Kadirov

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova